

OLMA BOG‘LARIDAGI O‘RGIMCHAKKANAGA QARSHI KURASHDA BANG ABAMETRAMAT AKARITSIDINING SAMARADORLIGI

Tashpulatov Uygun Bekmurzaevich

Toshkent davlat agrar universiteti dotsenti, q/x.f.f.d.,
Orcid ID: 0009-0004-1171-5260

Ucharov Artyom Bativich

O‘simliklar karantini va himoyasi ilmiy-tadqiqot instituti yetakchi ilmiy xodimi, q/x.f.n.
Orcid ID: 0009-0004-1672-1635

Muminov Rustam Amanovich

Toshkent davlat agrar universiteti dotsenti, q/x.f.f.d.,
Orcid ID: 0009-0004-1550-0718

Annotatsiya. Ushbu maqolada olma bog‘laridagi o‘rgimchakkanalarga qarshi Bang Abametramat preparati sinovdan o‘tkazilgan. Olib borilgan tajriba natijalariga ko‘ra, preparat qo‘llanilgan variantlarda biologik samaradorlik o‘rgimchakkanalarga qarshi 14- va 21-kunlarida 91,9-95,1% ni tashkil etgan.

Kalit so‘zlar: olma, nav, zararli organizm, o‘rgimchakkana, lichinka, preparat, tajriba.

Аннотация. В этой статье был протестирован препарат Банг Абаметрамат против паутинных клещей в яблоневых садах. По результатам проведенных испытаний в вариантах с применением данного препарата биологическая эффективность против паутинных клещей на 14 и 21 ден составила 91,9-95,1%.

Ключевые слова: Яблоко, сорт, вредный организм, паутинный клещ, личинка, препарат, опит.

Abstract. In this article, the drug Bang Abametramate was tested against cobwebs in apple orchards. According to the results of the conducted trials, the biological effectiveness against spider mites on the 14th and 21st days in the variants using this preparation was 91,9-95,1%.

Keywords: apple, variety, harmful organism, spider mite, larva, preparation, experiment.

Kirish. O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyotida asosiy tarmoqni qishloq xo‘jaligi egallaydi. Pestitsidlar va mineral o‘g‘itlardan keng foydalanishga asoslangan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarishning zamonaviy texnologiyalari aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta‘minlash muammosini sezilarli darajada hal qilish imkonini berdi.

Hozirgi vaqtda inson va hayvonlar uchun zaharli bo‘lmagan o‘simliklarni himoya qilishning yangi vositalarini ishlab chiqish va qo‘llash dunyo miqyosida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Mikroorganizmlar va ularning metabolitlari asosida o‘simliklarni himoya qilish vositalarini yaratish, shuningdek, potensial pestitsid faollikka ega bo‘lgan o‘simliklardan olingan moddalarni izlash bo‘yicha tadqiqotlar ustuvor bo‘lib qolmoqda, ammo yuqori samaradorlikka, qo‘llanilish ob‘ektlariga nisbatan selektivlikka va atrof-muhitda tez parchalanishga ega bo‘lgan kimyoviy birikmalar asosida pestitsidlarni ishlab chiqish bo‘yicha tadqiqotlar olib borilmoqda.

O‘zbekistonning qishloq xo‘jaligi mahsulotlari jahon bozorida xaridorgirdir. Ayni paytda umumiy qiymati qariyb 5 milliard dollarlik oziq-ovqat, meva-sabzavot mahsulotlari eksporti amalga oshirildi. Ushbu maqsadlarni amalga oshirish uchun katta mablag‘lar ajratildi, meva yetishtiruvchi fermerlar qo‘llab-quvvatlandi va natijasi o‘z samarasini berdi. So‘nggi uch yilda eksport qilingan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmi 3 barobardan ziyod oshdi. Mamlakatimiz dunyoning 80 ta davlatiga 180 turdan ortiq sarxil meva-sabzavot va ulardan tayyorlangan mahsulotlarni jo‘natmoqda. O‘zbekiston o‘rik, olxo‘ri, uzum, yong‘oq, karam va boshqa ko‘plab turdagi meva-sabzavot mahsulotlarini eksport qilish hajmi bo‘yicha dunyodagi yetakchi o‘nta davlat qatoriga kiradi.

Pestitsidlarni ro‘yxatdan o‘tkazish talablari tobora ortib bormoqda, masalan, AQShda 1200 dan ortiq pestitsidlarning ta’sir qiluvchi moddalari ro‘yxatga olingan va har yili 12 milliard dollarlik 20000 ta preparat muomalaga kiritilgan. 1988 yildan boshlab atrof-muhitni muhofaza qilish agentligi homiyligida pestitsidlarni yangi talablarga muvofiq qayta ro‘yxatdan o‘tkazish muntazam ravishda amalga oshirilmoqda, bu esa pestitsidlar sifatini oshiradi. Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida 967 ta pestitsid ro‘yxatidan 463 tasini qo‘llab-quvvatlashga qaror qilindi. 429 ta preparat qayta ro‘yxatdan o‘tkazilmaydi, 48 tasi ro‘yxatga kiritilgan va 27 tasi ro‘yxatdan chiqarilgan.

Meva ekinlari va tokda eng xavfli zararkunandalardan biri kana hisoblanadi. Bu ekinlarda biologik kurash choralari hasharotlar sinfiga mansub zararkunandalarga qarshi kurashdagidek mukammal ishlab chiqilmagan. Tadqiqotlar mavjud bo‘lib, ularda barglarning tukliligi tokdagi o‘rgimchakkana soniga ta’sir ko‘rsatishi kuzatilgan, bunda kuchsiz va o‘rtacha tukli navlari, ayniqsa, kanadan zarar ko‘radi, tokning tukli navlari esa kam zararlanadi.

Bang Abametramat em.k. preparatining tajriba sinovi olma daraxtidagi o‘rgimchakkanalar edi. Bang Abametramat em.k. preparati bilan kanalarga qarshi 0,1 l/ga me’yorda ishlov berilgandan so‘ng 1-kuni samaradorlik 71,1% ni tashkil etgan bo‘lsa, 3-kuni samaradorlik 80,8% gacha, 7-kuni 91,6% gacha ko‘tarildi, keyinchalik 14-kuni samaradorlik 89,5% gacha va 21-kuni 89,1% gacha pasayishi qayd etildi. Bang Abametramat em.k. preparatining gektariga 0,15 l/ga oshirilgan me’yorda qo‘llanilganda kanaga qarshi 1-kuni samaradorlik 77,8%, 3-kuni 86,8%, 7-kuni 95,1%, 14-kuni 94,4% va 21-kuni 91,1% ni tashkil etdi. Olingan natijalar, umuman olganda, Mekar, em.k. preparati qo‘llanilgan andoza variant ko‘rsatkichlari bilan bir xil darajada.

**“O‘SIMLIKLARNI HIMOYASI VA KARANTINIDA ILG‘OR TAJRIBALAR ASOSIDA
UYG‘UNLASHGAN HIMOYA TIZIMINI QO‘LLASH” MAVZUSIDAGI
XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLAR TO‘PLAMI**

agrokimyo.uzsci.uz karantinjurnali

Olma daraxtida meva kanasiga qarshi Bang Abametramat preparatining biologik samaradorligi

№	Variantlar	Preparatlarning sarf me'yori l,kg/ga	1 ta bargdagi kanalar soni					Biologik samaradorlik kunlar: %					
			Ishlovdan oldin	Ishlovdan keyin kun					1	3	7	14	21
				1	3	7	14	21					
1	Bang Abametramat	0,1	43,1	12,6	10,3	6,8	9,3	11,2	71,1	80,8	91,6	89,5	89,1
2	Bang Abametramat	0,15	45,8	10,3	7,5	4,2	5,3	8,8	77,8	86,8	95,1	94,4	91,9
3	Mekar, k.e. (18 g/l) (andoza)	0,05	39,4	10,5	5,8	4,9	6,2	8,0	73,7	88,2	93,4	92,3	91,5
4	Nazorat (ishlov berilmagan)	-	34,7	35,1	43,2	65,4	71,3	82,7	-	-	-	-	-

0,05 l/ga me'yorda qo'llanilganda samaradorlik 1-kuni 73,7%, 3-kuni 88,2%, 7-kuni 93,4%, 14-kuni 92,3% va 21-kuni 91,5% ni tashkil etdi. Olingan natijalar olma daraxtidagi o'rgimchakkanaga qarshi Bang Abametramat em.k. akaritsidini qo'llash yuqori samara berishini ko'rsatdi.

Ushbu maqolada olma bog'laridagi o'rgimchakkanalarga qarshi Bang Abametramat preparati sinovdan o'tkazilgan. Olib borilgan tajriba natijalariga ko'ra, ushbu preparat qo'llanilgan variantlarda biologik samaradorlik o'rgimchakkanalarga qarshi

14 va 21-kunlarda 91,9-95,1% ni tashkil etdi.

Andoza sifatida Mekar, em.k.preparati 0,05 l/ga sarf me'yorda olma bog'laridagi o'rgimchakkanalarga qarshi qo'llanilgan variantda esa nazoratga nisbatan 91,5% samaradorlikni tashkil etdi.

Olib borilgan tajriba natijalariga ko'ra, Bang Abametramat em.k. preparati 0,1-0,15 l/ga sarf me'yorda olma bog'laridagi o'rgimchakkanalarga qarshi 91,9-95,1% biologik samaradorlikka erishildi.

ADABIYOTLAR:

1. Абдулагатов А.З., Шихрагимов А.К., Абдулагатова Д.А. Паутинный клещ на виноградниках Дагестана // Ж.Защита и карантин растений.-М.-М -2012.-№ 2.-С.29-30.
2. Бровко Г.А., Бровко С.П. Биометод получает признание //Ж.Защита и карантин растений.-М.-М.-2007.-№11.-С.32.
3. Захарченко В.А. Повышены требования к регистрации пестицидов //Ж.Защита и карантин растений. М. -2007. -№3. -С. 21.
4. Инсектицид, акарицид, биологик фаол моддалар ва фунгицидларни синаш бўйича услубий кўрсатмалар, II-нашр. –Тошкент, 2004. – 104 б.
5. Коваленков В.Г., Глушко Д.А., Плотникова В.В. Курс – на биометод //Ж. «Защита и карантин растений». М. 2007. -№6. -С. 20-22.
6. Методические указания по применению и испытанию биопрепаратов для защиты растений сельскохозяйственных культур. –Москва, - 1971. С. 3-24.